



NAVOIY VILOYATIDA KAMABAGA'LIKDAN CHIQRISH VA IJTIMOY HIMOYA SIYOSATIDA SIFAT O'ZGARISHLAR

Parmonov Husan Shomurot o'g'li

Navoiy davlat universiteti

Tarix fakulteti Tarix kafedrası o'qituvchisi Mustaqil izlanuvchisi

Аннотация. *Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari, xususan, kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi sifat o'zgarishlari Navoiy viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy davlat tamoyilining mazmun-mohiyati, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati hamda hududlarda ijtimoiy xizmatlar samaradorligi statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, nogironligi bo'lgan fuqarolarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy infratuzilmani moslashtirish borasidagi ishlar tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari ko'rsatib berilgan.*

Калит so'zlar: *Ijtimoiy davlat, ijtimoiy himoya, kambag'allikni qisqartirish, Navoiy viloyati, nogironligi bo'lgan shaxslar, inklyuziv rivojlanish, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy xizmatlar, "Inson" markazi, bandlik, ijtimoiy yordam, mahalla tizimi, barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat, aholi farovonligi.*

Аннотация. *В данной статье на примере Навоийской области анализируются качественные изменения в системе социальной защиты населения и политике сокращения бедности, реализуемые в условиях Нового Узбекистана. Рассматривается сущность принципа социального государства, закреплённого в обновлённой Конституции Республики Узбекистан, а также реформы, направленные на поддержку лиц с инвалидностью, совершенствование деятельности центров социальных услуг «Инсон» и повышение эффективности социальных услуг на местах. На основе статистических данных исследуются вопросы материальной и духовной поддержки лиц с инвалидностью, обеспечения их занятости, расширения возможностей получения образования и адаптации социальной инфраструктуры к их потребностям. Кроме того, выявлены существующие проблемы и определены перспективы дальнейшего совершенствования системы социальной защиты населения.*

Ключевые слова: *социальное государство, социальная защита, сокращение бедности, Навоийская область, лица с инвалидностью, инклюзивное развитие, социальная политика, социальные услуги, центр «Инсон», занятость, социальная помощь, махалля, устойчивое развитие, социальная справедливость, благосостояние населения.*





Abstract. *This article analyzes qualitative changes in social protection and poverty reduction policies in Navoi region within the framework of the reforms implemented in New Uzbekistan. The study examines the essence of the social state principle enshrined in the renewed Constitution of the Republic of Uzbekistan, as well as reforms aimed at supporting persons with disabilities, improving the activities of “Inson” social service centers, and increasing the effectiveness of social services at the local level. Based on statistical data, the article explores issues related to material and moral support for persons with disabilities, employment opportunities, access to education, and the adaptation of social infrastructure to their needs. Furthermore, existing challenges and prospects for further improvement of the social protection system are identified.*

Keywords: *social state, social protection, poverty reduction, Navoi region, persons with disabilities, inclusive development, social policy, social services, Inson Center, employment, social assistance, mahalla, sustainable development, social justice, public welfare.*


Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida “O‘zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatligi belgilab qo‘yildi.”¹

Tadqiqot mazusi doirasida tahlil qiladigan bo‘lsak, Ijtimoiy davlat – ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, samarali ijtimoiy siyosat olib borishga asoslangan davlat modeli hisoblanib, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Shu boisdan ham, “ijtimoiy davlat” tamoyilini yangilangan Konstitutsiyamizga alohida norma sifatida kiritilganligi “Inson qadri uchun”, “Xalqni rozi qilish”, “Insonga e‘tibor” va “Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat” kabi ezgu g‘oya asosida olib borilayotgan davlatning ijtimoiy sohadagi xalqparvar va insonparvar siyosatga to‘liq mos keladi. Yangi O‘zbekistonda inson davlat va jamiyatdagi barcha transformatsion o‘zgarishlar jarayonining drayveriga aylantirildi. Shu boisdan ham insonni samarali ijtimoiylashtirish va bu jarayonning sifatini tubdan yaxshilash katta ahamiyatga egadir. Sifat o‘zgarishlarini ko‘zlab amalga oshiriluvchi islohotlar dastavval ta‘lim va tibbiyotga bo‘lgan davlat e‘tiborini tubdan o‘zgartirishni talab etadi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham ijtimoiy himoya sohasida tizimli islohotlarni izchil davom ettirish va yanada takomillashtirish, aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta‘minlash, davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishda samarali tizimni yaratishni ustuvor yo‘nalishlari belgilab qo‘yilgan.

2023 yil 27- fevralda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 74 son Qarori qabul qilindi. Qarorda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarining kafolatlarini mustahkamlash, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlamlarini teng huquq va imkoniyatlarga ega

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B.3.



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

bo'lishi ta'minlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotining barcha sohasida ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsad qilingan. Tom ma'noda Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash hamda ularga malakali yuridik yordam ko'rsatish tizimini transformatsiya qilish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan hamda I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarni zamonaviy son va boldir protezlari, shuningdek, oyoq kamari ortoped apparatlari bilan davlat hisobidan bepul ta'minlash mexanizmi yo'lga qo'yildi. 2023-yil 1-sentabrdan e'tiboran nogironligi bo'lgan shaxslarga protez-ortopediya moslamalari va texnik rehabilitatsiya vositalarini ajratishda tibbiy xulosa talab qilish tartibi bekor qilindi. Mazkur o'zgarishlar fuqarolarni ortiqcha ovoragarchilikdan xalos etish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda shaffoflikni ta'minlash va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan bepul ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 83-son qarori² ijrosini ta'minlash yuzasidan viloyatda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'siqsiz muhit yaratish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ularning ehtiyojlariga moslashtirish maqsadida mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida keng qamrovli xatlov tadbirlari o'tkazildi. Tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan davomida ta'lim olish, bandlik va rehabilitatsiya texnik vositalariga bo'lgan real ehtiyojlari tahlil qilindi. Monitoring natijasida aniqlangan tizimli muammolarni hal etish maqsadida fuqarolarga zarur huquqiy va ijtimoiy maslahatlar berildi. Mahalliy ijro hokimiyati va tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan yo'lga qo'yilgan konstruktiv hamkorlik natijasida ko'tarilgan masalalarning aksariyati ijobiy hal etildi. Shuningdek, Navoiy viloyati jamiyatga nogironligi bo'lgan shaxslardan jami 1 517 ta (1 280 tasi og'zaki, telefon orqali va 237 tasi yozma shaklda) murojaat kelib tushdi. Barcha murojaatlar o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilib, bayon etilgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan tezkor choralar ko'rildi. Quyidagi ushbu jadvalda Navoiy viloyati nogironlar jamiyati tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan tuman va shaharlarining ijtimoiy sohadagi ishlari tahlil qilingan.

Hududlar	Huquqiy yordam (nafar)	Oziq-ovqat (moddiy shaklda)	Ma'naviy ko'mak	Murojaatlar yechimi (samaradorlik)
Navoiy sh.	40	40	253	-
Xatirchi t.	100	521	653	-
Karmana t.	76	72	350	-
Nurota t.	-	106	-	31 / 42 (74%)
Konimex t.	-	-	-	18 / 52 (35%)

² <https://lex.uz/ru/docs/5870397> (murojat vaqti 23-yil 30-aprel)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Qiziltepa t.	-	-	-	25 / 78 (32%)
Zarafshon sh.	-	-	-	63 (umumiy murojat)
Navbahor t.	-	-	-	10 / 58 (17%)

Shuningdek, viloyatning barcha hududlarda “Nogironlik jamiyati – Homiyar – Davlat tashkilotlari” uchligi asosidagi ijtimoiy sheriklik model tashkil etildi. Oziq-ovqat mahsulotlarining to‘liq homiyar hisobidan qoplanishi ayniqsa Xatirchi va Karmana tumanlarida jamiyatda ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usi shakllanganini ko‘rsatadi. Biroq, bu byudjetdan tashqari mablag‘larga bog‘liqlikni ham ifodalaydi.

Konimex, Qiziltepa, Nurota va Navbahor tumanlarida murojaatlarni “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi va Bandlik bo‘limlariga yo‘naltirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, Nurota tumanida murojaatlarni ijobiy hal etish yoki tegishli organlarga yo‘naltirish eng yuqori 74% ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, Navbahor tumanida esa murojaatlarning ijro samaradorligi 17% tashkil etgan. Bu esa ichki resurslar yoki idoralararo hamkorlikda to‘siqlar borligini ko‘rsatadi.

Xatirchi tumanida 653 nafar va Karmanada 350 nafar nogironlarga ma’naviy ko‘mak ko‘rsatish masalasida ko‘rsatkichlarining yuqoriligi, ushbu hududlarda nafaqat moddiy, balki inklyuziv jamiyat integratsiyasiga ham e’tibor qaratilayotganini anglatadi.

Bugun O‘zbekistonda o‘z mehnatidan, baxt topib yashaydigan insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish – keng ko‘lamli islohotlarimizning asosiy maqsadidir. Biz ana shu yo‘nalishdagi ezgu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yurdamga muhtoj darajadagi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga ko‘tarib, O‘zbekiston tarixida ijtimoiy soha bo‘yicha bunday keng ko‘lamli ishlar hech qachon bo‘lmagan. Bugungi kunga kelib ijtimoiy himoya bilan ta‘minlangan aholining soni qariyb 1,5 barobarga oshdi. Ushbu toifani qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiyotimizni tiklash uchun davlat byudjetida nihoyatda katta mablag‘ ajratildi³.

2023 yilda Navoiy viloyatidagi 128 nafar ko‘zi ojiz nogironga moddiy va 287 nafariga ashyoviy yordam kursatildi. Mazkur yilda 54 nafari sog‘liklarini tiklashlari uchun sihatgohlarga yo‘llanmalarlar berilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib, 179 nafar ko‘zi ojiz nogironga moddiy, 656 nafariga ashyoviy, 179 nafari sog‘liklarini tiklashlari uchun sihatgohlarga yo‘llanmalarlar berildi. Bu ko‘rsatkich 2025-yilga kelib 348 nafar ko‘zi ojiz nogironga moddiy, 798 nafariga ashyoviy yordamlar ko‘rsatilgan, sihatgohlarga yuborilgan bu kabi fuqarolar soni 217 taga yetdi⁴.

Navoiy viloyatida mazkur sohada ishlar samarli va tizimli tashkil etib kelinmoqda. Viloyatida 2024 yilda 37 996 ta nogironligi bor fuqarolar ro‘yxatga olingan. Ularning 5 923 nafari 18 yoshgacha, 6 792 nafari 18 yoshdan 30 yoshgacha, 14 832 nafari 18 yoshdan

³ Mirziyoyev Sh yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Toshkent; O‘zbekiston – 2022. 191. B

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Ko‘zi ojizlar jamiyati Navoiy viloyati hududiy bo‘limi raisi Sharipov To‘lqin Sultonovich bilan muallifning shaxsiy muloqoti





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

pensiya yoshigacha va pensiya yoshidagi nogiron fuqarolar 10 449 nafarni tashkil etgan. 2 695 nafar nogiron o'z ish o'rinlariga ega bo'lsa, 428 nafari Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olib kelgan⁵. Viloyatining tuman va shaharlar kesmidagi ma'lumotlarni qo'yidagi jadvalda ko'rish mumkin.

T/P	O'z NJ bo'lim va bo'linmalar nomi	Jami nogiron	Shundan:						
			Bo'limlarga a'zo	18 yoshgacha	18-30 yoshgacha	18 yoshdan pensiya yoshigacha	Pensiya yoshidagilar	Oliy o'quv yurtida o'qiyotganlar	Ishlayotgan nogironlar
	Navoiy shahar	4 610	1 780	1 277	1 153	10 87	1 093	28	726
	Karmana tumani	4 796	1 967	1 022	420	2 001	1 553	36	19
	Xatirchi tumani	10 002	2 524	267	2 822	4 559	2 654	184	388
	Qiziltepa tuman	8 579	2 569	1 205	971	3 420	2 983	62	610
	Nurota tumani	3 026	1 103	419	395	1 468	744	18	42
	Konimex tumani	923	901	241	266	200	215	21	61
	Zarafshon shahar	1 614	893	859	244	246	265	28	152
	Navbaxor tumani	3 665	1 998	403	321	2000	941	41	517
	Uchquduq tumani	781	745	230	200	151	200	10	180
	Navoiy viloyati	37 996	14 470	5 923	6 792	14832	1049	428	2695

Keyingi yillarda mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikka qarshi kurash, "Mehr daftari", "Saxovat va ko'mak", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi tizimlar, sog'liqni saqlash va ta'limdagi islohotlar atroflicha tahlil qilinmoqda⁶.

⁵ Ўзбекистон Ногиронлар жамиятининг Навоий вилояти бўлими жорий архив материаллари ...

⁶ Mirziyoyev Sh hozirgi zamon va O'zbekiston – Toshkent; O'zbekiston – 2024. 64-76 B

